

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSISLIK FANLARINING O'QITILISHIDA KASBIY METODOLOGIK YONDASHINUV

Askarova Shirin Inomxodjaevna

*O'zbekiston davlat san'at va madniyat institutining
Farg'onan mintaqaviy filiali o'qituvchisi*

Pedagogika – (Yunoncha paidagogike bo'lib, paida – “bola” va gogike – “yetalklayman”) ma'nolarini anglatadi. Pedagog muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga to‘g‘ri ta'lism berib boruvchi jarayon ishtirokchisidir.

Ta'lism va tarbiya oralig‘ida pedagog ko‘prik vazifasini bajarishi kerak bo‘ladi. Shu o'rindan taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning hikmatli iborasini takidlash joizdir. “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Tarbiya masalalariga loqayd qaralgan vaziyatlar oqibatida ko‘plab ko‘ngilsiz xolatlarni keltirib chiqishi barchamizga ma'lum.

Buyuk vatandoshimiz Imam G'azzoliy bunday deydi: “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlanirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”.

Binobarin tarbiya o‘z navbatida shaxs kamolatida asosiy poydevordir. Qaysiki ta'lism oluvchi, oilasida va atrof - muhitda tarbiyalangan bo‘lar ekan yaxshi talim egasi ham bo‘la oladi.

Zero, bugun ilm-fan va ta'lism izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shashubhasiz tarbiya ta'limganing assosidir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lism-tarbiya assosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lism berishdan maqsadi –kelajagi porloq, vatan va el-yurt xizmatida kamarbasta bo‘ladigan kadrlarni tarbiyalashda bunday ta'lism-tarbiya o‘z samarasini bermay qolmaydi. Ya’ni, bugungi kunning o‘qituvchi va muallimi o‘zi ta'lism berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lism berishi, qolaversa jonkuyar tarbiyachi bo‘lishi shart.

Ta'lism, tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lism olish va ta'lism berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lism o‘qituvchi tomonidan boshqariluvchi o‘ziga xos anglash jarayonidir. O‘qituvchining yo‘naltiruvchi sifatidagi roli talabalarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘liq o‘zlashtira olishlarida ko‘rinadi.

Ta'lism o‘qituvchining talaba bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U talabalarga o‘quv materiallari mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo‘l qo‘ygan xatolarini

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

to‘g‘irlaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko‘rsatadi. Har qanday talim o‘zida o‘qituvchi va talabaning faoliyati, ya’ni o‘qituvchining o‘rgatish hamda talabaning o‘rganishga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

Ta’lim – Talabalarning nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakillantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

Bilim – Shaxsning ongida tushunchalar, ilmiy-ijodiy faoliyatidagi ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Ko‘nikma – shaxsning muayyan ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan xarakat yoki faoliyatni bajarishning tajriba almashinuv shakli.

Shu o‘rinda ta’lim jarayonida mutaxassislik fanlarida quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratib o‘tish lozim:

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, taqdimotlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasini yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llabquvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“**Aqliy hujum**” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plib, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki “pinbord” doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o‘rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalari shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi. “Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalari, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart. Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi “Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi; Muammoli savol beriladi Fikr va g‘oyalari eshitiladi va jamlab boriladi Fikr va g‘oyalari guruhanadi Aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;

4. Fikr-g‘oyalari ma’lum belgilar bo‘yicha guruhanadi;

5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi. “Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalari vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi. “Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:
 - ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
 - ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, birbiridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi “Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
 2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
 3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
 4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirish turiladi.
 5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
 6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
 7. Kichik guruhlar baholanadi.
- “Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi:
- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
 - muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
 - vaqtini tejash imkoniyati mavjud;
 - barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;

Kichik guruhlar shakllantiriladi Mavzu yoritiladi 1-guruhi topshiriq 2- guruhi topshiriq 3-guruhi topshiriq 4- guruhi topshiriq Ko‘rsatma berish va yo‘naltirish Muhokama va tahlil qilish 1- guruhi taqdimoti 2- guruhi taqdimoti 3-guruhi taqdimoti 4- guruhi taqdimoti Baholash

• o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikrmulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Ushbu tanlangan ta’lim metodlari bevosita mutaxassisligi amaliy bo‘lgan ya’ni san’at yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning ijodiy va nazariy bilimlarini oshirishga hizmat qiladi. San’at yo‘nalishidagi talabalarda asosan e’tibor amaliy ijob samaradorligiga qatilgan bo‘lib, ularning nutqiy rivoji va ilmiy fikrlash qobiliyati nisbatan boshqa ta’lim yo‘nalishidagi talabalaridan oqsaydi. San’at yo‘nalishidagi talabalarning mutaxassislik guruxli darslarida esa ushbu kamchiliklarni yuqorida keltirilgan metodlar asosida bartaraf etish imkonи mavjud.

Amaliy ijob hamda uning nazariy qismi birlikda egallangan bilim talabada to‘liq bilim olish imkonini ta’minkaydi.

San’at yo‘nalishi talabalari uchun yana bir ta’lim jarayoni ko‘chma darslarning tashkil etilishi. O‘quv yili davomida har oyda bir yoki ikki marotaba bitiruvchi faoliyatini davom ettiradigan tashkilotlarda amaliy va nazariy dars mashg‘ulotlarini olib borishi lozim. Amalyotda egallangan bilim o‘zining natijasiga ega bo‘ladi. Bu yangicha metod sifatida **“Amalyotda ta’lim”** metodi desak ham bo‘ladi.

Navbatdagi yondashuv esa **“Ekspeditsiya”** metodi. Bunda ham san’at va madaniyat sohasidagi talabalarning amaliy darslaridagi mustaqil ta’lim qismida mutaxassislik yo‘nalishlariga qaratilgan holda ekspeditsiyalarni tashkil etish. Mahorat darslari o‘tish, tanlangan mavzu yuzasidan jarayonlarni vedio tasmalarda yozib olish, foto lavxalarga olish va suhbat va ijob jarayonlarida ishtiroy etish kabi holatlarda ishtiroy etish.

Ta’lim sifati samaradorligi uchun eng avvalo mutaxassis fan o‘qituvchisi o‘z kasbining fidoisi va chuqr bilimga ega bo‘lishi muhimdir. Binobarin kelajagimiz bugungi kunda ta’lim olib kelayotgan yangi O‘zbekistonning avlodlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.D.Nurkeldieva, M.Ayupova, Mo‘minova. “Mutaxassislik fanlarining o‘qitish metodikasi” o‘quv -uslubiy majmua T., - 2016y.

2. A.S.Kaldibekova “Umumiy pedagogika”, T.,-2013y.